



UDK:323/324

Mashhura TEMIROVA*Qo'qon davlat universiteti dotsenti**E-mail: maftunaazimova67@gmail.com**Dotsent, DSc Q.Qodirov taqrizi asosida*

JAMOAT TARTIBINI SAQLASH TIZIMINING TARIXIY BOSQICHLARI VA FAOLIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistonda jamoat tartibini saqlash tizimining tarixiy bosqichlari, ichki ishlar idoralarining faoliyati, sohada olib borilgan islohotlar va tizimdagi o'zgarishlar to'g'risida aytiladi. Shuningdek maqolada respublikadagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy holatdan kelib chiqqan holda jamoat tartibini saqlash borasidagi chora-tadbirlar bosqichlari ilmiy asosda tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ichki ishlar, jamoat, huquq, millat, erkinlik, xavfsizlik, jinoyat, jazo, huquqbuzarlik, tartib, intizom.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СИСТЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА

Аннотация

В статье рассматриваются исторические этапы охраны общественного порядка в Узбекистане, деятельность ведомств, изменения в сфере и системе. Результаты мероприятий по охране общественного порядка осуществляются на научной основе, с учётом современной политической, экономической и социальной ситуации в республике.

Ключевые слова: органы внутренних дел, общественность, правонарушение, свобода, проступок, преступление, наказание, порядок, дисциплина.

HISTORICAL STAGES AND ACTIVITIES OF THE PUBLIC ORDER MAINTENANCE SYSTEM

Annotation

This article discusses the historical stages of maintaining public order in Uzbekistan, the activities of the departments, changes in the field and the system. The results of measures to maintain public order are carried out on a scientific basis, based on the current political, economic and social situation in the republic.

Key words: internal affairs, community, offense, freedom, offense, crime, punishment, order, discipline.

Kirish. Har bir soha faoliyatining shakllanish nuqtasi bo'lgani kabi, bugungi kundagi ichki ishlar organlarining faoliyatini tashkil etilishi ham uzoq tarixga borib taqaladi. Jamiyat rivojlanib boravergani sababli, ularning vazifalarida o'zgarishlar bo'lib borgan. Ya'ni, militsiya idoralari dastlab tashkil etilgan davrda tuzilmaning sohasiy vazifalari, nomlanishi, bo'limlari bugungi kundagi ichki ishlar organlari tizimidan farq qilgan. Biroq, mazkur sohaning asosiy vazifasi har doim jamoat xavfsizligini muhofaza etish bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ2896-sonli (2017-yil 18-aprel) qarori[1]. O'zbekistonda ichki ishlar profilaktikasi inspektorlari faoliyatini ilmiy asosda tahlil etishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid dastlabki tadqiqotlarni o'tkazgan N.Taumuratovning "История милиции Каракалпакстана в период восстановления национальной государственности (1917-1936 гг.)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi (1999) va A.Yermetovning "Turkiston ASSRda nazorat organlari va ularning totalitar tuzum o'rnatilishidagi o'rni. (1925-1991-yillar)" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi (2019), Q.Qodirov. Mustaqillik davrida O'zbekistonda ichki ishlar idoralarining faoliyati (1991–2011-yillar): Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasilarini (2019) keltirib o'tish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda ichki ishlar sohasi faoliyatini turli bosqichlari bo'yicha tahlil qilingan. Jumladan, N.Taumuratov o'z tadqiqotida

Qoraqalpog'istonning sovet davridagi ichki ishlar sohasi faoliyatini yoritgan bo'sa, A.Yermetov shu davrdagi O'zbekistondagi ichki ishlar sohasi faoliyatini ilmiy jihatdan tahlil etgan. Ammo mazkur sohaning mustaqillik yillaridagi faoliyati tarixiylik jihatdan faqatgina Q.Qodirov tomonidan ilmiy asosda tahlil etilgan. Mazkur tadqiqotlar o'zining soha faoliyatini turli davrlar va hududlar bo'yicha tarixiylik jihatdan tahlil etilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin yuqoridagi tadqiqotlarning barchasida ichki ishlar sohasi faoliyati umumiy tarzda o'rganilgan. Shu sababdan ichki ishlar sohasining muhim va yirik tarmog'i hisoblangan profilaktika inspektorlari faoliyati yaxlit tarzda tahlil etish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiy-yuridik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, xronologik kabi usullaridan foydalanildi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari mavzusini tadqiq etishda tadqiqotlar va mavzuga doir adabiyotlar, gazeta va jurnal materiallari hamda arxiv materiallari nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Manbalardan olingan ma'lumotlar tahlili mavzuga xolisona, tarixiylik qoidasi asosida yondashuvni talab etadi. Yuqorida ta'kidlangan usullardan foydalanish natijasida quyidagi ilmiy yangilik sifatida o'rganildi: ichki ishlar organlarining faoliyatini yanada takomillashtirish uchun respublikada amalga oshirilgan islohatlarning natijasida respublikadagi ichki ishlar profilaktikasi sohasida ijobiy o'zgarishlarga

erishildi. Xususan, huquqbuzarlik va jinoyatchilik ko'rsatkichlari yil sayin kamayib borganligi, ayniqsa 1990-yillarning boshlarida kuzatilgan rekvizit (o'ta og'ir) jinoyatchilik holatlari bartaraf etildi. Shuningdek sohaning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, bu esa soha hodimlarinig ish unumdorligini ortishiga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston hududida ichki ishlar organlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi uzoq va murakkab tarixiy jarayon bo'lib, har qaysi davrda xususan, amirlik va xonliklar davrida ham ichki ishlar organlarining asosiy vazifasi davlatning xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash va jamoat tartibini saqlashdan iborat edi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, jamiyatda tartibni saqlash va huquqni himoya qilish bilan shug'ullanuvchi organlar insoniyat tarixi qadar qadimdan mavjud bo'lgan. O'zbekiston tarixi manbalarini tahlil qilganda ham, bunday tuzilmalarning ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Go'yoki, "militsiya" so'zining o'ziga sinonim bo'lgan yoki faoliyati o'xshash bo'lgan tushunchalar qadimgi davrlarda ham qo'llanib kelingan. Shunga qaramasdan, geografik nomlarni o'rganuvchi olimlarning ko'plab ilmiy ishlarida "militsiya" yoki "ichki ishlar organlari" degan atamalarining aniq ta'rifiga kamdan-kam duch kelamiz. Ba'zi manbalarda bu haqda qisqacha ma'lumotlar uchrasa-da, ular yetarli darajada batafsil emas. Ammo, turli davrlarda bu xizmat vakillarini "soqchi", "chokar", "yasovul", "kutvol", "shig'ovul", "qorovul", "qo'riqchi", "shixna", "sarboz", "mirshab", "shabgard", "mulozim", "posbon", "jandarm", "polisiyachi", "drujinachi", "militsiya", "ichki ishlar idoralari" kabi iboralar shaklida ishlatib kelinganligini manbalarda uchratish mumkin [2.10].

Biroq vaqt o'tgani sayin bu nomlarda o'zgarishlar bo'lgani kabi tizimda ham yangilanishlar bo'lib bordi. Xususan, bugungi kunda ichki ishlar idoralarining bosh bo'g'ini hisoblangan "Huquqbuzarliklarni oldini olish bo'limi" "profilaktika inspektori" lavozimining joriy etilishi, maqsad va vazifalari ham davrlar mobaynida shakllanib bordi.

"Sovet davri" militsiya tarixi, uning paydo bo'lishi 1917-yilgi fevral inqilobi bilan bog'liq bo'lib, Rossiyada vaqtinchalik burjuaziya hokimiyati o'rnatildi. Bu hokimiyat Turkistonni boshqarish uchun maxsus komitet tuzdi. Bu komitetga boylar, socialistlar va boshqa burjuaziya vakillari kiritildi. Yangi hokimiyat avvalgi mustamlakachilik siyosatini davom ettirdi. Qishloq boshqaruvchilari, oqsoqollar va qozilar o'z o'rinlarida qoldirildi. Boylar xalqni urushga bormoqqa chaqirdi va xalqqa bo'lgan zulmni kuchaytirdi. Bu siyosat ishchilar, askarlar va kambag'al dehqonlarni norozi qildi. Askarlar va ishchilarning yig'ilishlarida yangi hokimiyatga ishonchsizlik bildirildi.

1920-yilning oxiriga kelib Turkiston ASSR hududida 34 ta shahar, 26 ta tuman va 92 ta rayon militsiya bo'limlari mavjud edi. 1920-yil 29-noyabrda Farg'onada tashkil etilgan militsiyada xizmat qilish uchun "Qo'shchi" ittifoqi a'zolarini jalb qila boshladi. Unda boshliqlar tarkibini tayinlash harbiy organlarning ruxsati bilan amalga oshirish belgilandi. Toshkentning yangi shahrida 300 ta, Eski shahrida 250 ta, Samarqandda 500 ta, Amudaryoda 270 ta, Farg'onada 620 ta, Yettisuvda 680 ta militsiya xodimlari byudjet hisobidan faoliyat yuritganlar. Toshkent shahri bo'yicha 40 ta shtat otliq otryadga ajratilgan. Birgina yangi shahar militsiya sining ma'muriy bo'limida 20 ta katta, 60 ta kichik militsiya xodimlar shtatlari ajratilgan [3.48]. Dastlabki yillarda sovet hukumati o'lkada o'z hokimiyatini mustahkamlash masalasida eng avvalo jamoat tartibini saqlash ishlariga zo'r berib e'tibor qaratdiki, qisqa vaqt ichida o'lkada tizimli ravishda jamoat havfsizligini saqlash tizimi yo'lga qo'yildi. Bu tizimning eng ahamiyatli tomoni unda faoliyat olib boruvchilarning quyida turuvchi qismi ya'ni asosiy tarkibi mahalliy millat vakillari ekanligida edi.

Darhaqiqat, agar ichki ishlar organlari tarkibida "profilaktika inspektori" deb nomlangan lavozim ancha keyin tashkil etilgan bo'lsada soha faoliyatini manbalar asosida tahlil etish shuni ko'rsatib turibdiki, sovet militsiyasining vazifalari bugungi kundagi profilaktika inspektorining vazifalari bilan bir xil ekanligini ko'rish mumkin.

Jumladan militsiya organlari faoliyati davomida bir qator komissarliklar va tashkilotlarga yordam berib turgan. Yer ishlari xalq komissarligiga o'rmonlarni qo'riqlashda, ovchilik va baliqchilik qoidalari buzmaslikni nazorat qilishda, Moliya xalq komissarligiga soliqlarni yig'ishda va aksiz qoidalari buzilish holatlarini tekshirishda, Tashki savdo xalq komissarligiga bojxona ishlarida; Adliya xalq komissarligiga fuqaro ishlari bo'yicha sud chiqargan hukmlarni amalga oshirishda, jumladan, sudga chaqiriq va chaqiruv qog'ozlarini topshirish, sud belgilagan jarimalarni undirish hamda sud hukmiga binoan yashash taqiqlangan hududlarni nazorat qilish va boshqalarda yordam berilgan. [4.42]

1925-1926-yillarda ichki ishlar organlarini qayta tashkil etish va faoliyatini yaxshilash bo'yicha qonunlar qabul qilinganiga qaramasdan, hujjatlarda bu ishlar amalga qiyinchiliklar bilan amalga oshirilgani ta'kidlanadi. Xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni tashkil etish va ularning ishini yo'lga qo'yishda turli muammolarga duch kelingani aytiladi [5]. Xususan eng muhim vazifa jamiyatda tartib-intizomni mustahkamlash va jinoyatning oldini olishda barcha militsiya bo'limlari va ayniqsa, jinoyat qidiruv bo'limlarida malakali kadrlarning yetishmasligi (Farg'ona viloyati, Xorazm viloyati 120, Qashqadaryo viloyati 121, Qoraqalpog'iston hududlarida 90% ma'lumotsiz bo'lgan 122 va b.), ayrim rayonlarda bitta ham jinoyat qidiruv inspektorlarining bo'lmaganligi, ijtimoiy ta'minotdagi uzilishlar 123 va harajatlarga mablag' yetishmasligi 124 (aloqa o'rnatishda pochta-telegrafdan foydalanish uchun va b.), bo'limlar hatto to'ldirish uchun belgilangan blankalar bilan ta'minlanmaganligi, viloyatlarda pasport stollari va manzil byurolarining yo'qligi 125 (shuningdek, ularning faoliyatiga oid yo'riqnomalar ishlab chiqilmaganligi) va boshqa tashkiliy masalalar bilan izohlanadi. Buning oqibatida respublikaning ayrim viloyatlarida (Qashqadaryo viloyatida bu ko'rsatkich juda past bo'lgan) jinoyatlarni fosh etish darajasi 38 %gacha 27 tushib ketish holatlari kuzatilgan. Qo'qon shahrida esa fuqarolarning arizalarini ro'yxat olish kitobida ko'rsatilgan 64 ta jinoiy ishdan bor-yo'g'i 7 tasi fosh etilgani O'zbekiston ASSR Adliya Komissarligiga Farg'ona viloyat prokurori tomonidan topshirilgan xisobotlarda keltirilgan [6.]

1926-yil mart oyida O'zbekiston SSR IIXK kollegiyasi yig'ilishida militsiya faoliyatiga tegishli jiddiy muammolar muhokama qilindi. Zarafshon viloyati ijroiya komiteti ma'muriy bo'lim boshlig'i A. Mukamilov Buxoroda jinoyatchilikning avj olganini ta'kidlab, fevral oyidayoq 40 dan ortiq uyushgan jinoyatchilik holatlari qayd etilganini aytdi. Mazkur holatning sababi kadrlar yetishmasligi muammosi ekanligini ta'kidladi [7].

Bu kabi jinoyatchilikning ortib borishi respublikaning boshqa hududlarida ham ortib borishi, endilikda sodir etilgan jinoyatni ochishgina emas uni avvalroq oldini olishga ko'proq e'tibor qaratish dakorligini ko'rsatdi. Shu sababli endilikda jamoat havfsizligini ta'minlashga e'tiborni kuchaytirish maqsadida sohani malakali kadrlar bilan ta'minlash ishiga e'tibor berila boshlandi. Chunki nafaqat respublika balki Ittifoq markazida ham mutaxassislar yetishmasligi sezilardi. Masalan, RSFSR davlat militsiya sining katta va oliy rahbarlari orasidan faqat 6 foiz xodimlar militsiya maktabini tamomlagan edilar [8].

1932-yilning aprel oyida militsiya va jinoyat qidiruv idoralariga yordam beruvchi jamiyatlar ishchi-dehqon militsiyasi qoshidagi yordamchi brigadalarga aylantirildi. Shundan keyin bu tashkilotlar ommaviylashib, profilaktika

ishi va huquqbuzarliklarga qarshi kurashda, jamoat tartibini saqlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashda militsiyaga faol yordam berdilar. Shu vaqtdan boshlab Toshkent shahar IIBB Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi faoliyatiga tamal toshi qo'yilgan [9].

Sovet militsiyasining bundan keyingi tashkiliy rivojlanishi, tarkibi, ish faoliyati shakl va usullarining takomillashishi SSSR miqyosida 1934-yil 10-iyulda Umumittifoq Ichki ishlar xalq komissarligi tuzilishi bilan bog'liq. Unga davlat xavfsizlik organlari va militsiya bo'ysundirilgan edi [10].

Ikkinchi jahon urushining dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston Respublikasi militsiya sining ko'plab xodimlari chaqiriq bilan va ko'ngilli ravishda Qizil armiya safiga qo'shildilar. Jumladan, Samarqand viloyati militsiya idoralaridan 149 ta xodim frontga ketdi. Toshkent militsiya maktabi kursantlarining 50 foizi, komandir-o'qituvchilar tarkibining 30 foizi o'zbek milliy diviziyasi, ya'ni general Panfilov diviziyasi saflarida jang qildilar [11].

Urush yillarida militsiya organlaridan frontga ketgan erkaklar o'rni xotin-qizlar kelishdi. Masalan, 1942-yildan 1945-yilgacha Toshkent militsiya maktabining kursantlar tarkibi ma'lum darajada xotin-qizlar hisobiga to'ldirilib, ularning salmog'i maktab kursantlari umumiy sonining 30-60 foizini tashkil qilardi [12].

Urush davrida Toshkent militsiya sida ayollar soni avvalgilarga qaraganda sezilarli darajada oshdi. Militsiya da ishlash har bir xodimdan juda katta mehnat, yuksak ma'naviy g'ayrat va mukammal halollik bilan birga, qat'iy intizomni talab qilardi.

Mamlakatimizning g'arbiy hududlaridan sharqiy va janubi-sharqiy viloyatlarga aholining ko'p miqdorda ko'chirilishi munosabati bilan yirik sanoat markazlari, bir qancha ittifoqdosh respublikalar poytaxtlari, jumladan Toshkentda shahar militsiya bo'limlari asosida shahar militsiya boshqarmalari tashkil etildi [13].

1949-yilga kelib ichki ishlar organlarida uchastka operativ vakillari lavozimlari joriy etildi. Obyektlarni muhofaza qilish yuzasidan idora militsiya si tuzildi, hovlilar, ko'chalar, bog'lar, parklar va boshqa jamoat joylarining sanitariya ahvoli va obodonchiligi ustidan nazorat o'rnatildi. Shuningdek, militsiya xodimlarining xizmatlarini rag'batlantirish maqsadida 1950-yil 1-noyabrda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi "Jamoat tartibini saqlashdagi a'lo xizmatlari uchun" medalini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qildi [14].

1950-1960-yillar oraliq'ida mazkur tashkilotning nomlanishida birmuncha o'zgarishlar bo'lib bordi. Xususan, 1953-yil 27-martda sho'ro hukumatinin Vazirlar Kengashi "Jamoat tartibini saqlashni va jinoyatlarga qarshi kurashni kuchaytirish choralari to'g'risida"gi qaror qabul qildi. Unga ko'ra, Ichki ishlar ministrligi va Davlat xavfsizligi komissariyati Ichki ishlar ministrligiga birlashdi. 1962-yil 22-fevralda ittifoqdosh respublikalar ichki ishlar vazirliklarining nomi Jamoat tartibini saqlash vazirligi, 1968-yil 25-iyundagi SSSR Oliy kengashi rayosatining farmoni bilan SSSR Jamoat tartibini saqlash vazirligi yana Ichki ishlar vazirligiga aylantirildi [15].

Biroq, mamlakatda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash borasida yuqori organlarda harchand islohotlar amalga oshirilmasin, ma'muriy hududlarda ushbu sohada gi faoliyatni tashkil qiluvchi alohida markaz yo'q edi. Aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashning ahvoli talab darajasida emas edi. Shu sababli, ushbu sohada gi ehtiyojni qondirish maqsadida, yashash joylarida huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat tartibini saqlash bo'yicha ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligini ta'minlashning nisbatan maqsadga yo'naltirilgan yangi huquq-tartibotni saqlash tayanch punktlari faoliyatiga asos solindi. Ushbu punktlar dastlab 1973-yilda Leningrad shahrida uy-joydan foydalanish mahkamalari negizida tashkil etildi [16].

Huquq-tartibotni saqlash tayanch punktlari shahar joylarida – xalq deputatlari mahalliy Kengashi ijroko'mlarining, qishloqlarda esa shirkat xo'jaliklari va davlat xo'jaliklari markaziy ovullarining qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Huquq-tartibot tayanch punktlarining hududini belgilashda ularning chegarasi shaharlarda uy-joydan foydalanish mahkamalarining chegarasiga teng qilib olingan olingan bo'lsa, qishloqlarda qishloqlar kengashi, shirkat va davlat xo'jalik hududiga mutanosib belgilangan. Bundan tashqari, shartli hukm qilinib, majburiy mehnatga jalb qilinganlar va jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinib, halq xo'jaligiga qurilishlarida mehnatga yollanganlar joylashtirilgan joylarda ham huquq-tartibot tayanch punktlari tashkil etilgan [17].

Tayanch punktlari tashkil topgan dastlabki davrlarda joylarda "jamoatchilik va militsiya tayanch punktlari", "jamoat tartibini saqlash tayanch punktlari", "militsiya tayanch punktlari" nomlari bilan atalgan. O'zbekistonda ushbu tuzilmalar "jamoatchilik va militsiya tayanch punktlari" deb yuritildi [18]. Faqatgina 1974-yilda rus olimi E.A. Смирнов ularni vazifalari va vakolatlaridan kelib chiqqan holda yagona nomda "Huquq-tartibotni saqlash tayanch punktlari" deb nomlanishi ular faoliyatini to'liq qamrashini va mos kelishini asoslab berdi [19]. Natijada butun mamlakatda bir xil tarzda "huquq-tartibotni saqlash tayanch punktlari" atamasidan foydalana boshlandi.

Xulosa va takliflar. Sovet hukumati yillarida olib borilgan notog'ri siyosat oqibatida vaziyat ancha izdan chiqib ulgurgan edi. Ichki ishlar idoralari tizimida, huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurash borasida ham hal qilinishi lozim bo'lgan juda ko'plab muammolar to'planib qolgan edi. Sovetlarning ichki ishlar idoralari tizimida olib borgan siyosati o'lka aholisi manfaatlar uchun emas, balki jamoat havfsizligini nazorat etish orqali mehnat unumdorligini oshirishga qaratilganligi bunga sabab bo'lgan deya baholash mumkin.

Tadqiqot natijasida quydagi takliflarni berish mumkin: Bugungi kunda jamoat havfsizligini ta'minlashda ijtimoiy tarmoqlardan keng ko'lamda foydalanish zarur.

Jamoat xavfsizligi nazoratchilari bo'lmish Ichki ishlar profilaktikasi inspektorlari faoliyatini yanada takomillashtirish uchun ularning bilim va ko'nikmalari hamda jangavor tayyorgarliklarini yanada oshirish zarur. Zero so'nggi yillarda huquqbuzarlik va jinoyatchilikning ilgari ma'lum bo'lmagan yangi turlari ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ички ишлар органларининг ҳуқуқбۇзарликлар профилактикаси бўлинмалари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2896-сонли (2017 йил 18 апрель) қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017. – № 17. – 288-м.
2. Кодиров Қ.Б. Тарих: Ўзбекистон ички ишлар органлари фаолиятдан: Ўқув қўлланма / – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2020. – Б.10.
3. Кодиров Қ.Б. Тарих: Ўзбекистон ички ишлар органлари фаолиятдан: Ўқув қўлланма / – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2020. – Б.48.

4. Ерметов.А. Ўзбекистонда ички ишлар органлари фаолияти (1925-1991 йй) Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тайёрлаган дисс. –Т 2019. –Б.49-52
5. ЎР МДА, 86-фонд, 1-рўйхат, 2151-иш, 382-385-варақлар.
6. Ерметов.А. Ўзбекистонда ички ишлар органлари фаолияти (1925-1991 йй) Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тайёрлаган дисс. –Т 2019. –Б.54
7. О'Р PDA, 58-fond, 1-ro'uxat, 751-ish, 27-28-varaklar.
8. Қодиров Қ.Б. Тарих: Ўзбекистон ички ишлар органлари фаолиятидан: Ўқув қўлланма / – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – Б.56.
9. Toshkent shahar ichki ishlar organlari kecha va bugun. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining 30 yilligiga bag'ishlanadi. – Т.: 2021. –Б.98.
10. Арипов Р. Из истории госбезопасности Узбекистана (1917-1935 гг.). –Т., 1967. – С.45.
11. Тошкент шаҳар ички-ишлар органлари кеча ва бугун. –Т.: 2021. – Б.30
12. Қодиров Қ.Б. Тарих: Ўзбекистон ички ишлар органлари фаолиятидан: Ўқув қўлланма / – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – Б.64
13. Уразаев Ш. Ташкентский Совет в годы Великой Отечественной войны. Т., «Узбекистан», 1968, –С.53.
14. Қодиров Қ.Б. Тарих: Ўзбекистон ички ишлар органлари фаолиятидан: Ўқув қўлланма / – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – Б.72.
15. O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi muzeyi fondi materiallaridan.
16. Зиёдуллаев М.З. Аҳоли уй турар жойларида жамоат тартибини сақлаш тизимлари: тарихи, бугуни ва хорижий тажрибаси. Ўқув қўлланма / – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – Б.11.
17. Зиёдуллаев М.З. Аҳоли уй турар жойларида жамоат тартибини сақлаш тизимлари: тарихи, бугуни ва хорижий тажрибаси. Ўқув қўлланма / – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – Б.12.
18. Миренский Б. А. Совершенствование деятельности опорных пунктов охраны правопорядка // Профилактика хукукини химоя қилиш бўйича Взаимодействие органов внутренних дел и общественных организаций. Омск, 1978. – С. 65.
19. Петров А. И., Полищук А. Д. Опорные пункты охраны правопорядка. Киев, 1976. - С. 10.